

KATTA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING IJTIMOIYLASHISH JARAYONINI TO'G'RI TASHKIL ETISH SHARTLARI

Sipatdinov Arman Sharafatdinovich

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universitetining Pedagogika psixologiya kafedrası
Amaliy psixologiya yo'nalishi student.

Mambetiyarova Venera Reyimbaevna

Ilimiy rahbar. Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universitetining Pedagogika
psixologiya kafedrası o'qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13938223>

Annotatsiya. Ushbu maqolada katta maktabgacha yosh davridagi bolalarning ijtimoiylashuv jarayoni va uning o'ziga xos xususiyatlari, shuningdek bu davrdagi bolalarning ijtimoiylashuvini to'g'ri tashkil etish shartlari va uning uchun zarur bo'lgan amaliy maslahatlar to'g'risida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar. Maktabgacha yosh davri, ijtimoiylashuv, etakchi faoliyat tushunchasi, rolli o'yinlar, ijtimoiylashuv maskanlari.

CONDITIONS FOR CORRECT ORGANIZATION OF THE SOCIALIZATION PROCESS OF PRE-SCHOOL CHILDREN

Abstract. This article talks about the process of socialization of children of pre-school age and its characteristics, as well as the conditions for the proper organization of the socialization of children in this period and practical advice necessary for it.

Key words. Preschool period, socialization, the concept of leading activity, role-playing games, places of socialization.

УСЛОВИЯ ПРАВИЛЬНОЙ ОРГАНИЗАЦИИ ПРОЦЕССА СОЦИАЛИЗАЦИИ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНИКА

Аннотация. В данной статье говорится о процессе социализации детей дошкольного возраста и его особенностях, а также об условиях правильной организации социализации детей в этот период и необходимых для этого практических советах.

Ключевые слова. Дошкольный период, социализация, понятие о ведущей деятельности, ролевые игры, места социализации.

Hozirgi bizning yashayotgan globallashuv davrimizda ko'pchilik ota-onalarni maktabgacha yo'shdagi farzandlarining tarbiyasini to'g'ri tashkil etish va ularning ijtimoiylashuv jarayoning o'ziga xos qonuniyatlari bilan bog'lik masalalar o'ylantirib kelmoqda. Chunki,

bolalarga to'g'ri tarbiya berish va ularning rivojlanishiga alohida e'tibor qaratish juda muhim ahamiyat kasb etadi. Davlatimiz tomonidan olib borilayotgan siyosat va yo'lga qo'yilayotgan amaliyotlar, shuningdek, davlatimiz rahbari tomonidan amalga oshirilayotgan islohatlar ham buning yaqqol timsolidir.

Xususan, 2022-yil 15-noyabr kuni Toshkent shahrida bo'lib o'tgan kichik yoshdagi bolalarni tarbiyalash va ularga ta'lim berish masalalari bo'yicha jahon konferensiyasiga muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashrif buyurdi. Davlatimiz rahbari o'z nutqida «Bu borada, avvalambor, yoshlar va bolalarga e'tibor va amaliy g'amxo'rlik ko'rsatish, ularni jismoniy va ma'naviy barkamol etib tarbiyalashga alohida ahamiyat qaratmoqdamiz. Bolalarni kichik yoshdan boshlab rivojlantirish orqali kelajakda ularning o'zligini to'la namoyon etishiga mustahkam zamin yaratayapmiz. Zero, bu ezgu maqsadimiz yo'lida sarflangan investitsiyalar ertaga bir necha barobar ortig'i bilan qaytishiga shubha yo'q», - deya ta'kidladilar.

Bu masalani davlat siyosati darajasiga ko'tarish va unga samarali yo'ndashish maqsadida bu bo'g'inga alohida e'tibor qaratib, barkamol avlodni aynan kichik yoshdan tarbiyalash siyosatini belgilab berdi. O'zbekiston Prezidentining 2017-yil 30-sentabrdagi farmoniga muvofiq, Maktabgacha ta'lim vazirligi tashkil etildi. Bog'chalar qurish va ta'mirlash, ilg'or tarbiya uslublari va metodikalarini joriy etish bo'yicha ko'p ishlar boshlandi. Natijada so'nggi yillarda maktabgacha ta'lim muassasalari soni 6 barobarga ko'paydi. Tarbiyachi va pedagoglar soni ham 3 barobarga o'sib, 160 mingga yetdi. Shu tariqa, bog'cha yoshidagi 2 million 800 ming nafar boladan 2 million nafari maktabgacha ta'lim bilan qamrab olindi. Shu va shu kabi boshqa ko'rsatgichlar bolalarni davlatimiz ravnaqiga hissa qo'shuvchi yetuk shaxs sifatida tarbiyalashga mamlakatimizning ham befarq emasligidan dalolatdir.

Ijtimoiylashuv – biron-bir voqea-hodisa, shaxs yoki harakatning ijtimoiy mohiyat kasb etib, ko'pchilikka daxldor bo'lib, ijtimoiy munosabatlar mujassamiga aylanib borishini anglatadigan tushuncha. Ijtimoiylashuv tushunchasidan birinchi bo'lib amerikalik sotsiolog olim F.G.Keddings o'zining 1987-yili nashr qilingan “Ijtimoiylashuv nazariyasi” asarida foydalangan.

U “Ijtimoiylashuv – individ xususiyatlari yoki xarakterining rivojlanishi, insonni ijtimoiy hayotga tayyorlash bosqichidir”, – deya ta'kidlab o'tgan. Inson ijtimoiylashuv bosqichida jamiyatga qoshilib yashash va shu jamiyatda mavjud bo'lgan ijtimoiy tajribalarni o'zlashtirishdan iborat bo'lgan jarayonlarni boshidan kechiradi.

Katta maktabgacha yosh davri – bu 6-7 yoshdagi bolaning aqliy rivojlanish bosqichidir.

Bu bosqich rivojlanishning ijtimoiy holati bola va kattalar o'rtasidagi birgalikdagi faoliyatning parchalanishi bilan tavsiflanadi. Bu davrda rol o'yinlar asosiy etakchi faoliyat deb topiladi. Ular rol o'yinlar orqali o'z pozitsiyasini, dunyo va munosabatlarni idrok etishlari

mumkin. Hozirgi davrda ko'pchilik ota-onalar katta maktabgacha yoshdagi farzandlarida o'qishga bo'lgan xohish-istakning kamligi to'g'rsidagi savollar bilan psixologlarga murojat qilishmoqda.

Psixologlarning ta'kidlashicha bu, albatta, tabiiy holdir. Chunki, yuqorida aytib o'tkanimizdek, bu davrda bolalardagi asosiy etakchi faoliyat rolli o'yinlar hisoblanadi. Bola rolli o'yinlar orqali insoniy munosabatlar dunyosini kashf etadi. O'yinda bola kattalarning harakatlarini takrorlaydi va shu bilan kattalar kabi bo'lish va harakat qilish tendentsiyasini tushunadi. Ushbu o'yinlar orqali bolalarda muhim shaxslar doirasi asta-sekin kengayib boradi va ular endi tengdoshlarga o'yin sheriklari sifatida qaray boshlaydilar. Katta maktabgacha yosh davri katta o'zgarishlar va bolalikning yangi bosqichiga - maktabga tayyorgarlik bosqichiga ko'tariluvchi davridir. Aynan shu davrda bolalarning har tomonlama rivojlanishi, yangi ko'nikmalarni joriy etish va yangi bilimlarni o'rganish jarayonlari faol davom etadi.

Katta maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiylashish jarayoni assimilyatsiya va jamiyat a'zolari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning asosiy ko'nikmalarini egallashdir. Ijtimoiylashuv jarayoni, birinchi navbatda, bolaning hayoti davomida insonlar guruhiga, aniqrog'i, tez orada qo'shilishi mumkin bo'lgan maktabdagi guruhiga oson moshlashish uchun tayyorgarlik hisoblanadi. Shu boisdan, bu davrdagi bolalarni jamiyatdan ajratish emas, aksincha, bolalar guruhlariga, o'yin maydonchalariga, bolalar bog'chasiga tashrif buyurishini va do'stlari bilan birgalikda o'yinlar o'ynab, muloqat qilishlarini ta'minlash zarur. Ijtimoiylashuv jarayoni bolalarda turli millat, yosh va jins vakillariga nisbatan bag'rikenglik, o'z etnik qadriyatlarini va tarixiy meroslariga bo'lgan hurmat, odamlarga, tabiatga, atrof muhitga nisbatan insonparvarlik kabi eng oliy qadriyatlarni shakllantirish demakdir.

Katta maktabgacha yoshdagi bolalar ijtimoiylashuv jarayonini boshdan kechirar ekan ularga oilasi, maktabgacha ta'lim tashkiloti, jamiyati va atrof muhit kabi omillar katta tasir ko'rsatadi. Ushbu yoshdagi bolalarning ijtimoiylashuvida bola tarbiyalanayotgan muassasadagi va u istiqomat qilayotgan oiladagi muhit, ta'lim va tarbiya shakllarining uyg'unligi juda katta ahamiyatga egadir. Chunki bola uchun bu davrda oilasi referent guruh sifatida katta ta'surot qoldiradi va bola keyinchalik ulardan namuna olishga, ulardek bo'lishga harakat qilishi so'zsiz.

Ushbu davrda bola uchun oila a'zolarining roli ahamiyatli bo'lib, asosan ota va ona rollari eng muhimi hisoblanadi. Bu davrda ota-onaning umumiy jihatlarini sifatida bolaga g'amxorlik qilish, uni tarbiyalash va ularga bilim berish kabilarni ko'rsatishimiz mumkin. Ota-onalar tomonidan bolaga haddan tashqari g'amxorlik qilish ham, haddan tashqari e'tibordan chetda qoldirish ham psixo-emotsional jarayonlarga va bolaning ijtimoiy rivojlanishiga salbiy tasir ko'rsatadi. Shuningdek, ota-onalarning noto'g'ri munosabati, haddan tashqari avtoritar yoki juda

liberal tarbiya uslubi ham har xil ijtimoiy moslashishdagi buzilishlar va qiyinchiliklarga duch kelishga sabab bo'lishi mumkin.

Bunday hollarning oldini olish maqsadida asosiy uslub sifatida psixologlar onaning boladan bir muncha uzoqlashishi, ya'ni bola o'z do'stlari doirasida bo'lishiga imkon yaratishi zarur deb ko'rsatadi. Natijada bolada tengdoshlari bilan bo'ladigan muloqatga kirishish istagining ortishiga sabab bo'ladi, bu esa bolada o'z qiziqish doirasining, ko'nlikmalarning shakillanayotganidan dalolatdir. Boshqa tomondan esa bola o'z o'ziga xizmat ko'rsatish, ya'ni muayyan ishlarni o'zi tashqi yordamlarsiz bajara olish qobiliyatining yuzaga kelishiga sabab bo'ladi.

Yuqorida keltirib o'tilganlardan kelib chiqib psixolog va sotsiolog olimlar katta maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiylashuv jarayonini to'g'ri tashkil qilish maqsadida ilimiy dalillarga asoslangan takliflarni ishlab chiqishdilar. Ularning fikricha, hozirgi globallashuv davrida ijtimoiylashayotgan katta maktabgacha yoshdagi bolalar turli ijtimoiy rollarni qabul qilish, ularga muvofiq harakat qilish va turli odamlar bilan munosabatlarni o'rnatish, maqsadlarini belgilash, tanlov va qarorlar qabul qilish, ularni baholashga qodir harakatlarni amalga oshira olish, qiziquvchanligini namoyon qila olish, tengdoshlari va kattalarga savollar berish orqali dastlabgi bilimlarni egallash va shu kabi boshqa bir qancha xususiyatlarga ega bo'lishlari kerak.

Bolalarda bunday hislatlarni rivojlantirishda ijtimoiylashuvni qo'llab-quvvatlash dasturini yaratish, o'quv mashqlari bilan bog'liq bo'lgan o'yinlarni tashkillashtirish, psixo-gimnastik mashqlari yoki treninglar o'tkazish, shu bilan birga rasm chizish va suhnatlashish kabi oddiy uslublarni qo'llash ham samarali natijalar ko'rsatishi mumkin.

Xulosa sifatida shuni ta'kidlash lozimki, maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiylashuvi psixologik jihatdan ham, sotsiologik jihatdan ham katta e'tibor talab qilinadigan jarayondir. Chunki ushbu bosqich bolalar hayotidagi jamiyat a'zosi sifatidagi yangi rolga ega bo'lish, kelajakdagi maqsadli pozitsiyalarini rejalashtirish va ularga etishish uchun zarur bo'lgan dastlabgi bilimlarni, tajribalarni o'zlashtirish kabi muhim xususiyatlarga ega bo'lgan bosqichdir.

Shunday ekan, yoshlarda ijtimoiylashuv jarayonini to'g'ri tashkil etish va ularga to'g'ri tajribalar berish – jamiyatimizdagi har bir katta yoshdagi avlodning asosiy ma'suliyatlaridan biridir.

REFERENCES

1. Myers D.G. Social psychology. 11 edition. - McGraw-Hill Education, 2022.
2. Андреева Т. В. Семейная психология: Учеб. пособие. - СПб.: Речь, 2019 - 244
3. G'oziyev.E.G F. Ijtimoiy psixologiya. — Toshkent., 2020.

4. Karimova.V.M. Sotsiyal psixologiya - Toshkent., 2022.
5. Elektronnaya biblioteka, <http://www.koob.ru>
6. Сайт “Психология на русском языке”: <http://www.psvchology.ru/Library>
7. Materiali po psixologii, <http://www.psvchology-online.net9>.